

# **Talaba va o‘quvchilar o‘rtasida o‘tkaziladigan “Kitob mening do‘stim” respublika ko‘rik-tanlovining NIZOMI**

## **I. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur nizom oliy va professional ta’lim muassasalarida tahsil oluvchi talaba va o‘quvchilar o‘rtasida “**Kitob mening do‘stim**” respublika ko‘rik-tanlovini (*keyingi o‘rinlarda Tanlov deb yuritiladi*) o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Tanlov talaba va o‘quvchilar o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish, shuningdek, talaba va o‘quvchilarning darsdan bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, kitobxonlik va mutolaa madaniyatini keng targ‘ib etish, kitobga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirish, targ‘ibot-tashviqot ishlarini samarali, tizimli tashkil etish va rag‘batlantirish maqsadida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tashkil etiladi.

3. Tanlovda talaba va o‘quvchilar keng qamrovli ishtiroki oliy ta’lim muassasalarining Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektorlari, professional ta’lim muassasalarining direktor o‘rnbosarlari hamda filial direktori o‘rnbosarlari tomonidan ta’milanadi va muvofiqlashtiriladi.

## **II. Tanlovning maqsadi va vazifalari**

4. Tanlovning asosiy maqsadi – talaba va o‘quvchilar o‘rtasida badiiy asarlarning hayotimizdagi o‘rni va ahamiyatini targ‘ib qilish orqali yoshlarimizni har tomonlama sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash, ularning kitobdan foydalanishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, mustaqil va erkin fikrga ega iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

5. Tanlovning vazifasi – mamlakatimizda kitobxonlikni keng targ‘ib etish, badiiy asarlarni yaratish va qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlarni hamda jamiyatimizda yuksak ma’naviyatni shakllantirish hamda mustahkamlashda badiiy asarlar roli va ahamiyatini yoshlar ongiga singdirish;

ijodkorlar tomonidan yangi yaratilgan badiiy asarlar bilan talaba va o‘quvchilarni yaqindan tanishtirib borish, ularda kitobni mutolaa qilish, tahlil qilib, o‘zlarining mustaqil fikr bildirishga oid ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;

yoshlar o‘rtasida kitobxonlik harakati targ‘iboti ta’sirchanligini yanada oshirish;

kitobning yosh avlodni har tomonlama yetuk, yuksak ma’naviyatli, intellektual salohiyatli, ota-onasiga, Vataniga sadoqatli vatanparvar insonlar qilib tarbiyalashdagi ahamiyati to‘g‘risida talaba va o‘quvchilarning tasavvurlarini yanada boyitishdan iborat.

## **III. Tanlovni tashkil etish tartibi va shartlari**

6. Tanlovnin o‘tkazish bo‘yicha ishchi guruhlari tuziladi hamda tanlovning birinchi-fakultetlararo (guruhi), ikkinchi-oliy ta’lim muassasasi (ta’lim muassasasi) va uchinchi-hududiy saralash bosqichini tashkil etish hamda ishchi guruhlarga oliy

ta’lim muassasalari rektori (1-prorektori), ta’lim muassasasining direktori o’rinbosarlari rahbarlik qiladi hamda yuqori saviyada tashkil etilishiga shaxsan mas’ul hisoblanadi.

7. Tanlov **4 bosqichda** o’tkaziladi:

- fakultetlararo (guruh) bosqichi;
- oliy ta’lim muassasasi (ta’lim muassasasi) bosqichi;
- hududiy saralash bosqichi;
- yakuniy respublika bosqichi.

8. Tanlovnинг барча босқичларини о’tkazish muddatlari Respublika tashkiliy ishchi guruh tomonidan belgilanadi va ta’lim muassasalariga vazirlikning xati orqali ma’lum qilinadi.

9. Tanlovnинг 1 - 2 - va 3-bosqichida Hakamlar hay’ati xulosasiga ko‘ra har bir bosqichdan faqat 1 nafardan ishtirokchi keyingi bosqich uchun yo’llanmani qo’lga kiritadilar.

10. Tanlov tashkilotchisi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi, tanlovda g‘olib bo‘lgan ishtirokchilar yuzasidan ma’lumotlarni 10 kun muddatda Moliya-iqtisodiyot va infratuzilmani rivojlantirish boshqarmasiga kiritadi.

11. Talaba va o‘quvchilar o‘rtasida “**Kitob mening do‘stim**” respublika ko‘rik-tanlovini o’tkazish bo‘yicha shoir-yozuvchilar, o‘qituvchilar, jurnalistlar va boshqa mutaxassislardan iborat Hakamlar hay’ati tuziladi.

12. Tanlovnинг fakultetlararo (guruh), oliy ta’lim muassasasi (ta’lim muassasasi) va hududiy bosqichlari quyidagi 3 ta shart asosida o’tkaziladi:

“**Bilimdon kitobxon**” sharti (test shaklida);

bunda, tanlov ishtirokchilar o‘rtasida test (30 ta savoldan iborat) o’tkaziladi.

“**Annotatsiya mahorati**” sharti;

bunda, ishtirokchi tomonidan “Men yoqtirgan asar” nomi ostida o‘zi sevib o‘qigan asar bo‘yicha qisqacha ma’lumotlar – annotatsiya beriladi;

“**Kitobxonlik va mutolaa madaniyatini keng targ‘ib etish**” sharti;

bunda, ishtirokchi tomonidan kitobxonlik va mutolaa madaniyatini targ‘ib etish jarayoni amalga oshiriladi.

#### **IV. Tanlov shartlarini baholash mezonlari**

13. Tanlovnı o’tkazilish tartibiga muvofiq “**Bilimdon kitobxon**” sharti (test) natijasi bo‘yicha tanlov ishtirokchilarining to‘plagan ballari (to‘g‘ri javoblar soniga qarab 1 ta savolga 0,5 ball – jami 15 ball) inobatga olinadi. Testlar badiiy adabiyotlardan, adib, yozuvchi shoir va ijodkorlarning hayoti va ijodidan tuziladi.

14. “**Annotatsiya mahorati**” shartida Hakamlar hay’ati ishtirokchilarning “Asarga tayyorlangan annotatsiya”sini baholashda ularning belgilangan (*asarlar ishtirokchilarga bir joyga to‘plagan holda 3 kun oldin tanlovnинг fakultetlararo (guruh), oliy ta’lim muassasasi (ta’lim muassasasi) va hududiy saralash bosqichini tashkil etish hamda o’tkazishga mas’ul bo‘lgan hududdagi (OTM) ishchi guruhlar orqali yetkaziladi*) asarni o‘qiganligini tekshiradi hamda mohiyatini to‘g‘ri tushungani va ifoda etib bera olish qobiliyatiga qarab 20 ballik tizimda quyidagi tartibda baholaydi;

annotatsiya yozishdagi savodxonligi – 5 ball;

tavsiya etilgan adabiyotning annotatsiyasini yozishda asarning yetakchi g‘oyasi va mazmunining to‘liq qamrab olinganligi – 5 ball;

kitobxon tomonidan asarga munosabatning (tanqidiy yoki ijobiy) qiziqarli va jozibador tarzda bildirilganligi – 5 ball;

annotatsiya matnida fikrni ifodalash uslubi, umuminsoniy g‘oyalar bildirilganligi, badiiy obrazlarning real hayot bilan bog‘liq ibratli tomonlari ochib berilgani – 5 ball.

Bunda, ishtirokchi tomonidan yozilgan annotatsiya matni Hakamlar hay’ati a’zolari tomonidan jamoaviy tarzda ko‘rib chiqilib, birgalikda xulosa qilgan holda, yagona baho (ball) qo‘yiladi.

15. **“Kitobxonlik va mutolaa madaniyatini keng targ‘ib etish”** shartida ishtirokchi tomonidan o‘zi sevib o‘qigan asari kitobxonlik va mutolaa madaniyatini targ‘ib etish jarayoni Hakamlar hay’ati oldida amalga oshiriladi:

Hakamlar hay’ati tomonidan ishtirokchining kitobxonlik va mutolaa madaniyatini targ‘ib etish usuli hamda ushbu jarayonda tinglovchini ishontira olish qobiliyati 15 ballik tizimda quyidagi tartibda baholanadi;

kitobxonlik va mutolaa madaniyatini targ‘ib etish borasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ibratli ishlar va bu borada aholi, xususan, yoshlar o‘rtasida erishilayotgan ijobiy natijalar yuzasidan fikr-mulohazalar mavjudligi – 5 ball;

targ‘ibot jarayonida ishtirokchi tomonidan o‘zi o‘qigan asarlarning kuchli va ta’sirchan tomonlarini ochib berishi hamda ushbu asarlardan olgan taassurotlarining o‘z hayot yo‘lida tutgan o‘rniga ahamiyat qaratishi – 5 ball;

kitob o‘qishning ijobiy natijalari yuzasidan o‘zi tomonidan bildirilayotgan fikrlarni aniq ma’lumotlar va ishonchli asoslar bilan yetkazish orqali tinglovchini ishontira olish qobiliyati – 5 ball.

16. Bunda, Hakamlar hay’atining har bir a’zosi o‘zining bahosini namoyishkorona e’lon qiladi va asoslab beradi. Barcha a’zolarning qo‘ygan ballari umumlashtirilib, Hakamlar hay’atining umumiyl soniga bo‘lingan holda o‘rtacha baho chiqariladi.

17. Yakuniy baho – tanlovnning uchta sharti natijalari bo‘yicha ishtirokchilarning to‘plagan ballarini qo‘shish ( $15+20+15=50$  ball) natijasi asosida aniqlanadi.

## V. Talovning respublika bosqichi g‘oliblarini aniqlash tartibi va baholash me’zonlari

18. Tanlovnning respublika bosqichi 2 ta shart bo‘yicha baholanadi.

**1-shart “Bilimdon kitobxon”** sharti tanlov ishtirokchilari o‘rtasida 30 ta savoldan iborat test o‘tkaziladi va ushbu shart 0.5 balldan jami 15 ballda baholanadi.

**2-shart “Mening sevimli ijodkorim”** sharti Respublika ishchi guruhi tomonidan tuzilgan 20 nafar adib, yozuvchi, shoir va hokozolar ro‘yxati (*ushbu ro‘yxat vazirlikning xati orqali hududiy bosqichda g‘olib bo‘lgan ishtirokchilarga 5 kun avval yuboriladi*) asosida ushbu ijodkorlarning 1 nafarini konvert orqali Hakamlar hay’ati oldida aniqlab oladi va hayoti, ijodi haqida insho yozishlari kerak bo‘ladi hamda mazkur shartga 20 daqiqa vaqt ajratiladi va ishtirokchilar adibning hayoti va ijodini ochib bergenligi, imloviy savodxonlik, so‘z boyligi va uslubiy mahorati inobatga olgan holda jami 20 ballda baholanadi.

19. Ishtirokchilar o‘zbek va qoraqalpoq tilida insho yozishlari mumkin.

20. 2 shart natijalari bo‘yicha umumiy ball hisoblanadi va g‘oliblar ballar ketma-ketligida aniqlanadi. Ishtirokchilar o‘rtasida ballar teng kelib qolgan taqdirda Hakamlar hay’ati tomonidan qo‘srimcha savol-javob yoki shart berilishi mumkin.

## **VI. Tanlov g‘oliblarini taqdirlash**

21. Tanlovnning fakultetlararo (guruh), oliy ta’lim muassasasi (ta’lim muassasasi) bosqichi hamda hududiy saralash bosqichi g‘oliblari ta’lim muassasalari tomonidan faxriy yorliq va qimmatbaho sovg‘alar, shuningdek, tanlovda faol ishtirok etgan qatnashchilar uchun ta’lim muassasasi rahbarining faxriy yorliqlari bilan taqdirlanadi.

22. Tanlovnning yakuniy respublika bosqichida g‘olib bo‘lgan 1- 2- va 3-o‘rin ishtirokchilari Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan vazirlikning oliy ta’lim muassasalarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan quyidagi tartibda:

**1-o‘rin – 8 000 000 so‘m;**

**2-o‘rin – 6 000 000 so‘m;**

**3-o‘rin – 5 000 000 so‘m;**

**4-o‘rin – 3 000 000 so‘m;**

**5-o‘rin – 2 000 000 so‘m.**

Professional ta’lim muassasalari:

**1-o‘rin – noutbuk;**

**2-o‘rin – planshet;**

**3-o‘rin – televizor mukofotlari bilan taqdirlanadi.**

23. Tanlovn tashkil etish va o‘tkazishda hamkor bo‘lgan tegishli vazirlik, idora va tashkilotlar o‘z hisoblaridan tanlov g‘oliblarini qo‘srimcha ravishda moddiy rag‘batlantirishlari mumkin.

## **VII. Yakuniy qoidalar**

24. Tanlov natijalari ijtimoiy tarmoqlarda va rasmiy veb-saytlarda e’lon qilib boriladi.

25. Tanlov ishtirokchisi (boshqa shaxs) tomonidan tanlovnning yakuniy bosqichini tashkil etish va o‘tkazish, shuningdek, uning natijasi bilan bog‘liq murojaat (e’tiroz)lar qabul qilinmaydi.

26. Respublika tashkiliy ishchi guruh tomonidan tanlov nizomiga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritilishi mumkin.